O‘ZBEK, RUS VA INGLIZ TILLARIDA EKVIVALENTSIZ TO‘Y UDUMLARI VA ULARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Ibrohimova Zarnigor Nodirjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti 3-bosqich tayanch doktoranti
Zarijon0611@gmail.com
ORCID ID 0009-0007-7294-0113

Annotatsiya

Ushbu maqolada turli til oilalariga kiruvchi o‘zbek, ingliz va rus tillaridagi ekvivalentsiz to‘y udumlari qiyosiy tahlil qilingan va ularning lingvomadaniy xususiyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, qiyoslangan tillarda ekvivalentsiz birliklar sonining teng emasligi mazkur xalqlarning lingvomadaniy tizimi va marosimiy an’analarining o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlari bilan bog‘liq ekanligi izohlandi.

Kalit so‘zlar: *etnomadaniyat, etnografizmlar, ekvivalentsiz leksika, olov, marosim, folklor, qadriyat.*

KIRISH

Har bir xalqning ma’naviy ongidagi etnomadaniy qadriyatlar, ya’ni urf- odat, marosim va an’analar uning juda uzoq yillar, balki asrlar davomida shakllangan intellektual mulkidir va jamiyatda yashash uchun insonlarga tayanch vazifasini o‘tovchi o‘ziga xos turmush tarzi hamdir. Ularni bilish, asrash va keyingi avlodga yetkazish bugungi globallashuv jarayonida mamlakatning, millatning milliy o‘zligini saqlash, qolaversa, mustaqillikning mustahkamligini ta’minlash uchun ham shart va zarurdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbek xalqiga oid to‘y marosimlari va unga bog‘liq bo‘lgan urf-odatlar bir necha diniy e’tiqodlar asosida hamda turli siyosiy davrlar mobaynida shakllanib, bugungi kungacha yetib kelgan. Ularni ifodalashda o‘zbek leksikoni muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, til har bir xalqning milliy o‘zligini namoyon qiluvchi, an’ana va urf-odatlarini aks ettiruvchi muhim omildir.

Hozirgi zamon to‘y marosimlari nomlari bilan bog‘liq tadqiqotlar A.Jo‘raboyev, Sh.Nurillayeva, H.Ismoilov, O.Bo‘riyev, Z.H.Orifxonova, M.Qaxarovalar tomonidan amalga oshirilgan [2, 29]. Tadqiqotchi Z.Alimova ham o‘z ilmiy ishida forscha-tojikcha to‘y marosimlari haqida to‘xtalib o‘tgan [1, 101-104].

A.Jo‘raboyev Andijon guruh shevalari materiallari asosida to‘y marosimlari nomlarini ifodalovchi so‘zlarni tahlil qilar ekan, tilshunoslikning muhim nazariy va amaliy masalalarini ochib berishda etnografik terminologiyaning muhim o‘rni borligini qayd etadi [4,9].

Turli xalqlarning to‘y marosimlarida ularning o‘ziga xos milliy-madaniy qadriyatlari namoyon bo‘ladi. Shu sababli to‘y marosimlariga oid ayrim leksemalar va nomlar bir tilda mavjud bo‘lib, boshqa tillarda ularga to‘liq mos keluvchi muqobillari uchramaydi. Bunday birliklar tilshunoslikda *ekvivalentsiz leksika* sifatida e'tirof etiladi. Ekvivalentsiz birliklar muayyan xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, ijtimoiy

munosabatlari va madaniy tajribasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular milliy-madaniy o‘ziga xoslikni saqlovchi muhim lingvomadaniy vositalar sanaladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘zbek, rus va ingliz xalqlarining to‘y marosimlari tarkibida faqat muayyan madaniyatga xos bo‘lgan va boshqa tillarda to‘liq muqobiliga ega bo‘lmagan udumlar uchraydi. Bu maqolada mazkur tillardagi milliy-madaniy xususiyatga ega ayrim to‘y udumlari qiyosiy-lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinadi.

Olov atrofida kelinni aylantirish. Nikoh to‘yi tantanasi tugagach kelinni, ba’zi hududlarda kelin bilan kuyovni birgalikda olov atrofida uch marta aylantirib keyin uyga olib kirish odati hanuzgacha saqlanib qolgan. Olovning kelinchakka hamroh bo‘lgan ins-u jinslardan va ziyon-zahmatlardan poklashi nazarda tutilgan. Bu odat yosh kelin uchun olov, o‘tning issiq tafti va yorug‘ligi muqaddas qudrat sifatida uni turli ziyon-zahmatdan saqlab, unga kuch-quvvat, himoya bag‘ishlaydi degan tasavvurda bajariladi.

Qo‘lushlatar. Tilshunos N.Kurbanazarova o‘zining “Surxondaryo vohasi to‘y marosimi etnografizmlarining semantik tabiati va lingvomadaniy tadqiqi” nomli ilmiy ishida bu marosimga shunday ta’rif beradi: “Kelin-kuyovning butun umrga bog‘lanishi, bir-biriga yelkadosh bo‘lib, yaxshi-yomon, og‘ir-yengil kunlarida, sog‘ligida yoki bemorligida bir- birini tashlab ketmaslik ramzi sifatida ushbu marosim o‘tkaziladi. Urf-odatlarni bajarishda bosh-qosh bo‘layotgan yoshi ulug‘ ayol bir qo‘liga kelinning, bir qo‘liga kuyovning qo‘lini ushlab, ikkalasini birlashtiradi, ya’ni qo‘llarini ushlattiradi” [2, 29].

Shunday qilib, “Qo‘lushlatar” nikohning nafaqat huquqiy, balki ma’naviy va axloqiy birligini ifodalovchi ramziy udum sifatida namoyon bo‘ladi.

Oyoqbosar. Bu udum kuyov kelinni ota uyidan olib ketayotganda o‘tkaziladi. Bunda kuyov yig‘ilgan mehmonlar, ya’ni, qarindoshlar, kuyovjo‘ralar va kelinning dugonalari ko‘z o‘ngida kelinning oyog‘ini bosadi. Bu udum birinchi bo‘lib oyoqni bosgan kishi oilada yetakchi bo‘ladi, degan ma’noni anglatadi. Lekin ko‘p hollarda kelin kuyovga o‘z xohishi bilan oyog‘ini bostiradi. Bu uning dini va oilada ko‘rgan tarbiyasi ta’siri o‘laroq, erkakning o‘zidan bir pog‘ona yuqorida turishi va oilada erkakning yetakchiligini tan olishi bilan xarakterlanadi.

Mazkur udum o‘zbek xalqining oiladagi ierarxiya, er-xotin munosabatlari va erkakning yetakchilik mavqeiga oid an’anaviy qarashlarini aks ettiradi.

Kelintopar/Kelinyashindi – bu marosim tarixiy hisoblanib, bugungi kunda deyarli, o‘tkazilmaydi. Hozirda Farg‘ona vodiysining Rishton tumanida bu udum chaqiriq marosimi so‘nggida o‘tkaziladi. Kelinning ota-onasi kelin–kuyovni va kuyov xonadoni a’zolarini uylariga mehmonga taklif etadilar. Mehmonlarga ziyofat beriladi va sovg‘alar tortiq qilinadi. Ketar chog‘ida kelinchakni berkitib qo‘yishadi. Kuzatishlarimiz natijasida shunga amin bo‘ldikki, kelinchakni qayinsinglisi, ya’ni kuyovning opasi yoki singlisi topishi kerak bo‘ladi.

“Kelinyashindi”dan maqsad, kuyovning topqirligini sinash, qizini uzatgan oila a’zolariga xushkayfiyat ulashish, kelinchakning ko‘nglini yangi oilasiga ilitish va eng asosiysi, ota-onasi uyiga endi mehmon bo‘lib kelgan qizning ko‘nglini ko‘tarib, quvontirish va xushnudlik bilan kuzatib qo‘yishdir.

Ingliz va rus madaniyatlarida ham nikoh bilan bog‘liq o‘ziga xos udumlar mavjud bo‘lsa-da, ularning mazmuni va ramziy asoslari milliy-madaniy tajriba bilan belgilanadi.

Ingliz madaniyatida to‘y qilish uchun hafta kunlari, fasl, oy va mavsumlardan tashqari ranglar ham o‘ziga xos ahamiyatga ega. Bu kelinning kiygan libosida o‘z aksini topgan. Nikoh to‘yida kelinnning oq rangli libos kiyishi ommalashishidan oldin ranglar ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

“Something old, something new…” an’anasidagi barcha buyumlar o‘ziga xos mazmunni ifodalab, kelinning qizlik oilasi uchun qanchalik qadrli ekanini, oilaning muqaddasligini, turmush hayotga nisbatan umid va ishonchni ramziy tarzda namoyon etadi.

Rus madaniyatida esa **Девичник** marosimidan so‘ng bo‘lajak kelinning dugonalar bilan hammomga borishi muhim bo‘lgan. Bu odat turmush qurishdan oldin poklanish ramzi sanalgan. Qizni yuvinishiga yordam berishgan va sochlarini o‘rib qo‘yishgan [5].

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, bitta qilib o‘rilgan soch – turmush qurmagan qiz bolani, ikki o‘rim soch esa turmushga chiqqan ayolning turmagi hisoblangan. V.Bergerga ko‘ra soch konseptiga oid *русая коса, красная коса, косынька, косушка, плести, непетый волос* singari leksik birliklar qiz bolani, qizlik davrini anglatsa, *косынка, волосник, фата, кича, в две косы (заплетать), кругом головы, петый волос, коса вокруг головы* kabi so‘z va so‘z birikmalari qizning yangi holatga o‘tishini, ya’ni turmush qurgan ayol ekanini ifodalaydi [3, 108].

XULOSA

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek to‘y marosimlari tizimida nikohning turli bosqichlarini ifodalovchi ekvivalentsiz udumlar son jihatidan nisbatan ko‘proq uchraydi. Bu holat o‘zbek nikoh to‘y marosimining ko‘p bosqichli hamda marosimlashgan xarakteri bilan izohlanadi. Rus va ingliz madaniyatlarida ham milliy-madaniy xususiyatga ega to‘y udumlari mavjud bo‘lsa-da, ularning ayrimlari tarixiy taraqqiyot va zamonaviylashuv jarayonlari ta’sirida soddalashgan yoki umumiy nikoh marosimlari tarkibiga singib ketgan bo‘lishi mumkin. Shu bois qiyoslanayotgan tillarda ekvivalentsiz birliklar sonining teng emasligi mazkur xalqlarning lingvomadaniy tizimi va marosimiy an’analarining o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlari bilan bog‘liqdir.

O‘zbek madaniyatida marosimlar ko‘p bosqichli tizim sifatida shakllangan bo‘lsa, ingliz va rus madaniyatlarida ular nisbatan umumlashgan va ramziy xarakterga ega. Ingliz va rus madaniyatlarida ekvivalentsiz udumlar kamroq uchrashi ularning marosim tizimi soddaroq va standartlashganligi bilan izohlanadi. Shunga ko‘ra, har uchala madaniyatda ham nikoh konsepti universal bo‘lsa-da, uning ifodalanish shakli turlicha namoyon bo‘ladi. Demak, ekvivalentsiz to‘y udumlari har bir xalqning milliy tafakkuri, ijtimoiy qadriyatlari va madaniy tajribasini aks ettiruvchi lingvomadaniy kodlar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alimova, Z. V. (2021). About common words in Uzbek and Tajik languages, their semantics. *Theoretical & Applied Science*, (5). – P. 101-104.

2. Kurbanazarova N. Surxondaryo vohasi to‘y marosimi etnografizmlarining semantik tadqiqi va lingvomadaniy tadqiqi. Filol.fan. nomz. … diss. – Termiz, 2021. – B. 29.

3. Бергер В. КУЛЬТУРНЫЙ СМЫСЛ СВАДЕБНОГО ОБРЯДА И ЕГО ВЫРАЖЕНИЕ В ЯЗЫКАХ (НА МАТЕРИАЛЕ КОНЦЕПТА ВОЛОС В РУССКОМ, КАЗАХСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ). Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2019. Том 12. Выпуск 3. С.108.

4. Джурабаев А. Названия свадебных церемоний в Узбекском языка (На материалах андижанской группы говоров). Дисс… канд. филол. наук. – Ташкент, 1971. – С. 9.

5. Древние русские традиции проведения мальчишников и девичников. https://dzen.ru/a. 19 сентября 2020.